

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

Raxmadjonova Shirin Ravshan qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Avezova Rohila Ruzimboyevna

*Ilmiy rahbar: Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy yondashuv va tizimli metodlar asosida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi ta'lim sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Xalqaro tajribalar OECD, John Hattie hamda milliy yondashuvlar integratsiyasi orqali kompetensiyani rivojlantirish samaradorligi oshiriladi. Kompetensiyani rivojlantirishni samarali yo'llari kengroq tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *kasbiy kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, pedagogik mahorat, refleksiya, innovatsion texnologiyalar, uzluksiz ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv*

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретические и практические основы развития профессиональной компетентности учителя начальных классов. Результаты, полученные на основе анализа научной литературы, сравнительного подхода и системных методов, показывают, что профессиональная компетентность учителя является ключевым фактором, определяющим качество и эффективность образования. Эффективность развития компетентности повышается за счёт интеграции международного опыта, в частности OECD и исследований John Hattie, а также национальных подходов. Эффективные пути развития компетентности подробно проанализированы.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, начальное образование, педагогическое мастерство, рефлексия, инновационные технологии, непрерывное образование, компетентностный подход.*

Annotation: *This article analyzes the theoretical and practical foundations for developing the professional competence of primary school teachers. The results obtained through the analysis of scientific literature, comparative approaches, and systematic methods indicate that a teacher's professional competence is a key factor determining the quality and effectiveness of education. The effectiveness of competence development is enhanced through the integration of international experiences such as those of the OECD and research by John Hattie, along with national approaches. Effective ways of developing competence are examined in detail.*

Keywords: *professional competence, primary education, pedagogical mastery, reflection, innovative technologies, continuous education, competency-based approach.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsni shakllantirishning dastlabki bosqichida faoliyat yuritishi sababli, uning kasbiy tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Sh.M. Mirziyoyev – Yangi O'zbekiston strategiyasi da ta'kidlanganidek, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi⁶⁶-deb ta'kidlaganlar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim tizimidagi ustuvor masalalardan biridir.

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'qituvchidan nafaqat bilim berishni, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishni talab etmoqda. Bu esa o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi yuqori darajada rivojlangan bo'lishini zarur qiladi.

Raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik yondashuvlarning jadal rivojlanishi o'qituvchilardan doimiy ravishda o'z ustida ishlashni, yangi metod va vositalarni egallashni talab etmoqda.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchi shaxsining shakllanishida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli aynan shu bosqichda faoliyat yuritayotgan o'qituvchining kasbiy mahorati ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS kabi) natijalari ham o'qituvchining kompetensiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim sifatini oshirish uchun uni rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirish, zamonaviy talablar asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha adabiyotlar tahlil qilish maqsadlidir.

N.A. Muslimov – kasbiy kompetentlik o'qituvchining bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarining integratsiyalashgan tizimi bo'lib, u pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlaydi⁶⁷.

A.V. Khutorsky – kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim tizimiga joriy etish mexanizmlarini tahlil qiladi. U kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini farqlab, o'qituvchining amaliy faoliyatida ularni qo'llash yo'llarini ko'rsatadi. Bu asar

⁶⁶ Sh.M. Mirziyoyev – Yangi O'zbekiston strategiyasi – Toshkent, 2021. – B. 156–158.

⁶⁷ Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va uning shakllanishi. – Toshkent: Fan, 2015. – B. 45–52.

boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega⁶⁸.

L.S. Vygotskiy –kasbiy kompetensiya orqali o'zning asarlarida o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi va o'qitish jarayonining psixologik asoslarini ochib beradi. Bu orqali o'qituvchining kasbiy kompetensiyasida psixologik bilimlarning muhimligi asoslanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchi psixologiyasini tushunish zarurligini ko'rsatadi.

OECD hisobotlari (PISA tadqiqotlari) Ushbu xalqaro tadqiqotlar o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ta'lim sifati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Hisobotlarda zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan talablar, innovatsion metodlardan foydalanish va o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish masalalari yoritilgan⁶⁹.

I.A. Zimnyaya – Ta'lim natijalari sifatida kompetensiyalar tadqiqotlarida kompetensiyalarni shakllantirish tizimli jarayon sifatida ko'rib chiqiladi⁷⁰.

L.M. Mitina – O'qituvchining kasbiy rivojlanishi esa kasbiy rivojlanishda refleksiyaning muhimligini asoslab beradi⁷¹.

John Hattie – Visible Learning tadqiqotlariga ko'ra, o'qituvchi omili o'quvchilar natijalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi⁷²

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u pedagogik, psixologik, metodik va innovatsion yondashuvlar integratsiyasini talab etadi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning quyidagi samarali yo'llarini aniqlash imkonini berdi:

1. Kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars jarayonini faqat bilim berishga emas, balki o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni (muloqot, mustaqil fikrlash, muammoni hal etish) shakllantirishga yo'naltirishi zarur. Bunda har bir mavzu real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lanib, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

2. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'qituvchi kompetensiyasini rivojlantiradi. Shu bois boshlang'ich sinf o'qituvchisi interfaol metodlar, AKT vositalari, didaktik o'yinlar va raqamli platformalardan foydalanib, dars samaradorligini oshirishi lozim.

3. Refleksiv faoliyatni rivojlantirish. O'qituvchi har bir o'tilgan darsdan so'ng o'z faoliyatini tahlil qilishi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi zarur. Bu esa darslarni yanada takomillashtirish, o'quvchilar ehtiyojiga mos metodlarni tanlash va kasbiy o'sishga xizmat qiladi.

4. Uzluksiz kasbiy rivojlanish. R.H. Dave tomonidan ilgari surilgan "uzluksiz ta'lim" g'oyasiga muvofiq, boshlang'ich sinf o'qituvchisi doimiy ravishda malaka oshirib

⁶⁸ Хуторской А.В. Ключевые компетенции. – Москва, 2003. – С. 67–72.

⁶⁹ OECD. Teachers Matter. – 2005. – p. 47–53.

⁷⁰ Зимняя И.А. Ключевые компетентности. – Москва, 2004. – С. 34–39.

⁷¹ Митина Л.М. Психология профессионального развития учителя. – Москва, 2004. – С. 112–118.

⁷² Hattie J. Visible Learning. – 2009. – p. 89–95.

borishi, yangi metod va yondashuvlarni o'zlashtirishi kerak. Seminarlar, treninglar va mustaqil o'qish bu jarayonning muhim qismidir.

5. Xalqaro tajribalarni joriy etish. OECD hisobotlarida qayd etilganidek, o'qituvchi sifatli ta'limning asosiy omilidir. Shu sababli o'qituvchi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib, ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirib qo'llashi lozim.

6. Ta'lim samaradorligini monitoring qilish. John Hattie tadqiqotlariga ko'ra, o'qituvchi omili o'quvchilar natijalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi⁷³. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi muntazam ravishda o'quvchilarning bilim darajasini baholab, natijalarni tahlil qilishi va dars strategiyasini shu asosda takomillashtirib borishi zarur.

Mazkur yo'nalishlar boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularni amaliyotga joriy etish orqali o'quv jarayonining samaradorligi va sifat ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshadi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlar kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, refleksiv faoliyatni rivojlantirish, uzluksiz kasbiy ta'limni yo'lga qo'yish, xalqaro tajribalarni integratsiya qilish. Mazkur yondashuvlar o'qituvchining kasbiy salohiyatini oshirib, ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va uning shakllanishi. – Toshkent: Fan, 2015. – B. 45–52.
2. Хуторской А.В. Ключевые компетенции. – Москва, 2003. – С. 67–72.
3. Sh.M. Mirziyoyev – Yangi O'zbekiston strategiyasi – Toshkent, 2021. – B. 156–158.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетентности. – Москва, 2004. – С. 34–39.
5. Митина Л.М. Психология профессионального развития учителя. – Москва, 2004. – С. 112–118.
6. Талызина Н.Ф. Педагогическая психология. – Москва, 2008. – С. 210–215.
7. Dave R.H. Foundations of Lifelong Education. – 1976. – p. 132–136.
8. OECD. Teachers Matter. – 2005. – p. 47–53.
9. Hattie J. Visible Learning. – 2009. – p. 89–95.
10. Darling-Hammond L. Powerful Teacher Education. – 2006. – p. 101–110

⁷³ Hattie J. Visible Learning. – 2009. – p. 89–95.